



## TRAXEYANING CHANDIQLI TORAYISHIDA TRAXEYANING SIRKULAR KESISH JARROHLIK AMALIYOTINING ZAMONAVIY JIHATLARI

*Mualliflar: Prof. Eshonxodjayev O.D.,  
T.f.n. Tursunov N.T.,  
T.f.d. Paxomov G.L., Shamsiyev S.B.  
(Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti)*

**Kirish:** Traxeyaning chandiqli torayishi (stenoz) — nafas yoʻllarining ogʻir patologiyasi boʻlib, u asosan uzoq muddatli intubatsiya, traxeostomiya yoki shikastlanishlar natijasida yuzaga keladi. Ushbu holatlarda nafas olishning buzilishi, gipoksiya va hayot uchun xavfli asoratlar kuzatiladi. Zamonaviy jarrohlik amaliyotida traxeyaning sirkulyar rezektsiyasi (kesib olib tashlash va uchma - uch anastomoz xosil qilib tikish) eng samarali va radikal davolash usuli hisoblanadi.

**Maqsad:** Traxeyaning chandiqli torayishida radikal jarroxlik amalyoti sirkulyar rezektsiya qilish usulining samaradorligi va zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirishning afzalliklarini oʻrganish.

**Ilmiy tadqiqot materiallar va usullar:** Tadqiqotda 2017–2023-yillar davomida traxeyaning chandiqli torayishi tashxisi bilan jarroxlik amalyoti oʻtkazgan 16 nafar bemor (14 erkak, 2 ayol, 24–60 yosh) kuzatildi. Bemorlarning barchasida torayish darajasi Cotton–Myer shkalasi boʻyicha II–IV darajali edi. Operatsiyalar mikrojarrohlik asboblari, lazer texnologiyasi va endoskopik nazorat ostida bajarildi. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlar intensiv terapiya va nafas rehabilitatsiyasi dasturi asosida kuzatildi.

### **Natijalar:**

- 16 nafar bemorning barchasida (100%) nafas yoʻlining toʻliq oʻtuvchanligi tiklandi. Jarroxlik amalyoti oʻtkazgan bemorlarda asoratlar kuzatilmadi.



- Zamonaviy endoskopik nazorat, absorbsiya qilinadigan tikuv materiallari va lazer koagulyatsiyasidan foydalanish operatsiya travmatizmini kamaytirish va tiklanish muddatini 20–25% ga qisqartirdi.

**Xulosa:**

- Traxeyaning chandiqli torayishida sirkulyar rezektsiya — zamonaviy jarrohlik texnologiyalari bilan birgalikda qo‘llanganda yuqori samaradorlikka ega, xavfsiz va fiziologik jihatdan maqbul usuldir.
- Minimal invaziv yondashuvlar, endoskopik nazorat, biopolimer tikuv materiallari va individual rehabilitatsiya dasturlari operatsiyadan keyingi natijalarni sezilarli yaxshilaydi.